

Muvaffaqiyat Yo‘Lim: Unda Topganlarim Va Yo‘Qotganlarim

Dilshod Karimov,

“Nihol” va “Mard o‘g‘lon” Davlat mukofotlari sovrindori, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shu kungacha bosib o‘tgan muvaffaqiyat yo‘lim, bu yo‘lda duch kelgan to‘siqlarim va ular orqali erishgan natijalarim haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh ijrochilar, “San’at maktabi”, “Eng namunali musiqa ijrochiligi maktabi”, “Mo‘jizali Parij”, “Melomaniya”, “Kingdom of Spain”.

Inson umrining eng unutilmas damlari yoshlik yillaridagi betakror lahzalari bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Senga hamma narsa qiziq, ijod qilganing, uning ichiga kirib borganing sari qiziqishing kuchayib, qilayotgan ishing ko‘zingga go‘zal ko‘rinaverar ekan. Bolaligimdan san’atga musiqaga juda qiziqqanman va o‘z ijod faoliyatimni 6 yoshimdayoq Aloqa.A.K televideniyasida boshlaganman.

2007 yildan Guliston shaxridagi musiqa maktabiga rubob-prima cholg‘usiga o‘qishga borganman. Musiqa maktabida o‘qish jarayonida juda ko‘plab tanlov va festivallarda qatnashganman va g‘olib bo‘lganman. Ammo bu tanlov festivallarda g‘olib bolishim uchun Guliston san’at kolleji ustozlaridan olgan maxorat darslarim sabab bo‘lgan desam adashmagan bo‘laman. Ustozlarimiz Nail Baxadirov, Abdulxamid Mamatqulovlarning doimo yuq demasdan bergan bilim va tavsiyalari natijasi menga kollejga kirishimga katta yordam berdi. 2013 yil Guliiston san’at kollejiga o‘qishga qabul qilindim va Ustozimning ustozini, ustozni Abdulxamid Mamatqulovga xaqiqiy shogird bo‘lishga musharraf bo‘ldim.

Men o‘sha Guliston davlat San’at kollejida taxsil olgan yillarimni, ustozlarga bo‘lgan hurmatim, ehtiromimni yurakdan xis qilgan xolda mammuniyat bilan eslayman, hech qachon u damlarning hayajonini unutolmasam kerak. Agar musiqa saboqlarni o‘sha ulug‘ maskanda olmaganimda bunchalik xalq e’tirofiga sazovor bo‘lishim amri mahol edi, deb o‘ylayman.

Men bolaligimdan prima rubob soziga maxliyo bo‘lganman, bu cholg‘u soziga bo‘lgan xavas, keyinchalik yuragimni to‘ridan joy oldi va bu soz bilan jiddiy shug‘ullana boshladim. Qiziqishim meni shu san’at dargoxiga boshlab kelgan. Sinovlarni muvaffaqiyatli topshirib, talaba bo‘ldim. O‘quv dargoxining halq cholg‘u sozlari bo‘limida ustozim Abdulxamid Mamatqulovdan rubob-prima sozini chalish sirlarini o‘rgana boshladim, ular qunt va maxorat bilan o‘rgatardilar. Bu yerda nafaqat mutaxassis ustozlarimiz, barcha fanlar o‘qituvchilari mehribon, o‘z kasblarining fidoyilarini edi. Direktorimiz Adxam akaning jonkuyarligi tufayli turli joylardagi tadbirlarga ishtirok etish imkoniyatini qo‘lga kiritardik.

Kollejda o‘qish jarayonida birinchi marta 2015 yil Toshkent shahrida Madaniyat, san’at va musiqa kollejlari hamda maxsus musiqa akademik litsey o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan “Yosh ijrochilar” respublika tanlovida ishtirok etgandim. Bunda II darajali diplomga ega bo‘lganman. Shu yili yana “Sozlar navosi” ko‘rik-tanloving respublika bosqichida I darajali diplom, “San’at

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

maksiabi" televizion festivalining respublika bosqichida "**Eng namunali musiqa ijrochiligi maksiabi**" nominatsiyasi diplomiga sazovor bo'ldim. Bunday ishtiroklarim albatta, o'zimni chiniqtirish bilan birga, elga tanitar, pirovardida, o'quv yurtim Guliston san'at kollejining nomi ham respublikaga dong taratib borardi. Men kabi o'quvchilar kollejimizda ko'pchilik edi. San'atsevar tengdoshlarim men kabi bir-birimizdan qolishmasdan turli tanlovda g'oliblikni qo'ldan bermaslikka harakat qilishardi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz, xususan viloyatimizda ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish keng qamrovda yo'lga qo'yilishi juda katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Men ham shu imkoniyatlardan foydalanib, 2016 yil Fransiya Davlatining Parij shahrida o'tkazilgan "**Mo'jizali Parij**" nomli masofaviy Xalqaro tanloviga jahon musiqa san'atidan, milliy musiqalar bisotidagi ijrolarimdan onlayn tarzda namunalar yubordim. Ishlarim yuqori baholandi, II darajali diplom, bilan taqdirlandim. Barcha yoshlari qatori men ham dunyoning mo'jizaviy shaxari Parijga borishni orzu qilganman. Ammo buncha tez erishaman deb, hayolimga kelmagandi. Shu desangiz, masaofaviy tanlovdagi muvaffaqiyatim, bu orzuimni ro'yobga chiqardi. 2016 yil Parij shahrida o'tkazilgan Gala konsertda o'qituvchim A.Mamatkulov bilan ishtirok etdim. Ustozlarim birga gala konsertdan so'ng, afsonaviy shaharni aylandik, Jahonning yetti mo'jizasidan biri Eyfel minorasi tepasida Parijni to'lig'icha tomosha qildik. Bunda yuragimdagagi to'lqinlarni qanday ifodalay, qisqasi orzuimdagagi mamlakatni o'zimning shu mo'jazgina qadrdonim rubob prima bilan zabit etganimga ishongim kelmasdi. O'shandagi quvonch ruhi bilan Fransiyaning festivallar o'tadigan Kan shahridagi yana bir nufuzli tanlov – "Battle music" deb nomlangan masofaviy tanlovda ham 1 o'ringa sazovor bo'ldim.

Jaxonning mashhur mamlakatidagi muvaffaqiyatlarimning barchasini menga qadrdon kollejim, ustozlarim hadiya etdi. 2016 yil yana "Navro'z sadolari" II Xalqaro milliy cholq'u ko'p ovozli ansambl va orkestrlar festivalida o'rtoqlarim bilan ishtirok etdik, ijro mahoratini yuqori darajada namoyish qilganimiz uchun Odiljonov Asilbek, Nurmamatov Davlat, Mamatqobulov Sulton va men festival sertifikati bilan taqdirlandik. 2016 yil "Nihol" Davlat mukofoti Respublika ko'rik – tanloving Sirdaryo viloyat bosqichida faol ishtirok etganim uchun 1 darajali diplomini olib, festivalning respublika bosqichida ishtirok etish xuquqini qo'lga kiritdim. Provard, oliy o'quv dargohi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga imtiyozli grant asosida o'qishga qabul qilindim.

Talabalik yillarim ham o'ziga xos yutuqlarni qo'lga kiritdim. 2017 yil esa hayotimda unutilmas iz qoldirdi "**Nihol**" Davlat mukofoti uchun o'tkazilgan barcha ko'rik –tanlovlarda muvaffaqiyatlari qatnashib, sovrin g'olibi bo'ldim. 2018 yili Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida bo'lib o'tgan **V.P.Pletnev** nomidagi xalqaro xalq cholq'u ijrochilarining nufuzli ko'rik-tanlovida II o'rinni, "**Fonte viva**" xalqaro ko'rik-tanlovida faxrli I o'rinni qo'lga kiritdim. 2019 yil Ispanyaning Barselona shahrida o'tkazilgan "**Kingdom of Spain**" xalqaro ko'rik-tanlovida GRANT PRI sohibiga aylandim.

Oliy o'quv yurtini tugallab, viloyatga qaytib, Oqoltin tumanidagi 7-son Bolalar musiqa va san'at maksiabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinosari vazifasida ishlab yurgan kezlarimda "**Mard o'g'lon**" davlat mukofotiga nomzod bo'ldim. 2021 yili muhtaram Prezidentimiz qo'llaridan "**Mard o'g'lon**" davlat mukofotini olishga musharraf bo'ldim. O'shanda yurtboshimiz ko'ksimga ko'krak nishonini taqib qo'yar ekan, yuksak ishonch bildirdi. Men esa el-u yurt oldida shu mukofotga loyiq bo'lishga, bor imkoniyatlarimni o'zbek san'at rivoji yo'lida bahshida etishga va'da berdim. Qardosh xalqlarimiz bilan milliy madaniy meroslarimizni saqlash va bir birlarimiz bilan fikr tajriba almashish maqsadida 2022 yilda Turkiya davlatining Bursa shahrida Bursa bosh madaniyat markazi damli cholq'ular orkestori bilan bo'lib o'tgan hayriya konsertida Guliston san'at kolleji "**Melomaniya**" guruhimiz bilan ishtirok etdik. Undan tashqari bolaligimdan orzuyim

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

bo‘lgan O‘zbek kino san’atida ilk bor o‘zimni sinab ko‘rish maqsadida “**Dilozor**” nomli serialga bastakorlik qildim, va bu serial 2022 yilning “**Eng yaxshi seriali**” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi.

Endilikda oliygochlarda ham ta’lim olib, ya’ni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistraturasida o‘qish bilan birga ustozlar safida mehnat qilmoqdaman. Meni yuksaltirgan qadrdon dargohda yoshlarga san’at sirlarini o‘rgatib, ma’naviyat taraqqiyotiga xissa qo‘shish uchun astoydil harakat qilayapman. Bu esa oson ish emas ekan. Ustozlarimning mashaqqatlarini endi xis qilayapman. Bizning injiqliqlarimizni mehribonlik bilan yengib o‘tgan, yutuqlarga yetaklagan, el nazariga tushishimizda, loyiqmizmi yo‘qmi, shu darajaga yetkazib, vatan mukofotlariga sazovor etgan o‘qituvchilarim oldida hamisha ta’zimdaman. Doimo sog‘-u salomat bo‘ling, aziz ustozlar! Bugun yarim asrlik to‘yini nishonlayotgan aziz maskanim – Guliston ixtisoslashtirilgan san’at maktabi jamoasini chin yurakdan samimiyl qutlab, hali ko‘p asrlar halqimizning san’atga oshiq farzandlarining muhtasham o‘quv dargohi bo‘lib qolishini istayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. www.wikipediya.uz
2. www.saviya.uz
3. <http://dsmi.uz/>
4. <http://myurls.co/yoshlarishlariagentligi>